

## BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING AXLOQIY-ESTETIK KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH MASALASI

Babajanov Ilhom Abdulla o'g'li  
Urganch Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining axloqiy-estetik ko'nikmasini rivojlanirishning o'ziga hos pedagogik tomonlari yoritilgan bo'lib, aynan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida shakllantirilgan axloqiylik, estetiklik tushunchalari yosh avlodga, tarbiyalanuvchilarga qanday ijobjiy ta'siri o'rGANILGAN.*

*Kalit so'z: Pedagog, jismoniy tarbiya fani, axloq, kasbiy mahorat, estetika, sport, kadr, zamonaviy yondashuv, kompetentlik, rivojlanish, didaktik, ko'nikma.*

## БУДУЩИЕ УЧИТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ВОСПИТАНИЯ ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ

Бабажанов Илхом Абдулла ўғли  
независимый исследователь Ургенчского государственного университета.

*Аннотация. В данной статье освещаются специфические педагогические аспекты развития нравственно-эстетических навыков будущих учителей физической культуры, а также то, как представления о нравственности и эстетике, формируемые будущими учителями физической культуры, оказывают положительное влияние на молодое поколение и учащихся.*

*Ключевые слова: Педагог, воспитании наука о физическом, этика, профессиональные навыки, эстетика, спорт, кадры, современный подход, компетентность, развитие, дидактика, навыки.*

## FUTURE TEACHERS OF PHYSICAL EDUCATION THE PROBLEM OF DEVELOPING MORAL-AESTHETIC SKILLS

Babajanov Ilhom Abdulla o'g'li  
an independent researcher at Urganch State University

*Annotation. This article highlights the specific pedagogical aspects of developing the moral and aesthetic skills of future physical education teachers, and how the concepts of morality and aesthetics formed by future physical education teachers have a positive impact on the young generation and students.*

*Key words: Pedagogue, science of physical education, ethics, professional skills, aesthetics, sport, personnel, modern approach, competence, development, didactic, skills.*

**Kirish.** Respublikamizda jismoniy tarbiya darslarining o'tkazilishdagi innovatsion yondashuvlar aynan jismoniy tarbiya fani pedagoglari uchun alohida mas'uliyat va tajribani talab qiladi. Bugungi kunda sport sohasidagi izlanishlar malakali pedagogik kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlanirish maqsadida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilyotganligini ko'rish mumkin. Jismoniy tarbiya va sportga doir fanlarni o'qitishda, nazariy va amaliy jihatdan asoslashda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining individualligida alohida estetik va axloqiy tarbiya kompetensiyalarining bo'lishi bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Shuning uchun ham, bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini axloqiy va estetik jihatdan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi aynan ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarda ham shunday hissiyot ila tarbiyalanishiga sababchi bo'ladi. Aynan jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarida estetik kompetensiyani rivojlanirish orqali talaba yoshlarda sport sohasiga hos nafislik, o'zgacha jismoniy harakatlardagi estetik tomonlarini shakllantirish mumkin. Qachonki pedagogning o'zida bu sifatlar mavjud bo'larkan ular tarbiyalanuvchi va ta'lim oluvchilarda ham rivojlanirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Ta'limda axloqiy va estetik madaniyatga ega bo'lgan, sport mashg'ulotlarni didaktik tashkil eta oladigan kadrlar tayyorlash zamonaviy pedagogikaning alohida yondashuvi va kasbiy mahorati orqali o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy faoliyatida axloqiy-estetik kompetensiyasini shakllantirish bilan bog'liq muammolarga ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Aynan, O'zbekiston Respublikasining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning

Taraqqiyot strategiyasi”da jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo‘yicha ham bir qator vazifalar belgilangan bo‘lib, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti hamda uning filiallariga qabul ko‘rsatkichlarini oshirish hisobiga faoliyat yuritayotgan oliy ma’lumotli trenerlarning amaldagi 54 foizlik ulushini 2022-yilda 62 foizga, 2026-yilda 85 foizga oshirishda ham bevosita bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga ijobjiy munosabatni ko‘ra olish mumkin. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti va uning filiallari bitiruvchilarini sport ta’limi muassasalariga jalb etishlishidagi imkoniyatlar bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilariga imkoniyatlar eshigi ochiq ekanligining yorqin misolidir. Ushbu vazifalar tegishli oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini oshirish hamda ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining didaktik ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. [1]

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish bo‘yicha ko‘plab olimlar izlanish olib borgan. Ulardan I.I.Perevarzin, V.I.Joldak, O.N.Stepanova, M.S.Axmatovlarning ilmiy ishlarini alohida ta’kidlash joiz. Jismoniy tarbiya va sport sohasida makalali mutaxassislar tayyorlashning nazariy-metodik asoslarini tadqiq etishga doir xorijlik olimlar V.I.Utkin, V.A.Salnikov, E.V.Bondorenko, L.P.Matveev hamda respublikamiz olimlaridan N.T.To‘xtaboyev va boshqalarning ilmiy izlanishlarini e’tirof etish mumkin.

A.Abdullayev, Sh.Xonkeldiyevlar jismoniy tarbiya tushunchasini pedagogik jarayon sifatida o‘zlarining nazariy qarashlarini ilgari surgan bo‘lib, jismoniy tarbiya inson organizmini morfologik va funksional jihatidan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo‘lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni shakllantirish va yaxshilashga qaratilgan.[3]

Zamonaviy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilariga avvalgidan ko‘ra ko‘proq mas’uliyat yuklana boshladi. Avvallari u bolalarni jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullantirish, o‘quvchilarga jismoniy mashqlarni o‘rgatgan bo‘lsa, bugungi kunda uning vazifalari kengaygan va u nafaqat o‘qituvchi, balki zamonaviy o‘qitish usullarini ta’minlovchi pedagog, o‘quvchilar va aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzining targ‘ibotchisi ham bo‘lishi kerak. Bu masala O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida ham o‘z aksini ko‘rish mumkin.[2]

Muhokama va natijalar. Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining axloqiy-estetik faoliyati talaba-yoshlarning jismoniy, ruhiy rivojlanishi, ularning salomatligini mustahkamlash va talaba-yoshlarga sportning turli yo‘nalishlari bo‘yicha axloqiy tushuncha va estetik qarashlarni tarkib toptirish muhumdir.

O‘quvchilar bilan mashg‘ulotlar olib borish uchun bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi quyidagi sifatlarga ega bo‘lishi lozimligini ko‘rsatish mumkin.

- o‘quv mashg‘ulotlariga tuzatishlar kiritish uchun o‘quvchining ichki dunyosiga kirib borishni, uning holatini tushunishni ta’minlaydigan kuzatish;
- konstruktivlik, shaxsni shakllantirish va turli vaziyatlarda o‘quvchining xatti- harakatlarini oldindan bilish uchun;
- materialni tushunarli tarzda taqdim etishni ta’minlaydigan didaktik ko‘nikmalar;
- o‘quvchilar bilan do’stona munosabatlar o‘rnatishga imkon beruvchi muloqot qobiliyatları;
- o‘quvchilar yoki sportchilarni samarali tayyorlashda, shuningdek, sport tadbirlarini o‘tkazishda namoyon bo‘ladigan tashkilotchilik qobiliyati;
- pedagogik va psixologik sohada tajribani umumlashtirishni o‘z ichiga olgan akademik ko‘nikmalar;
- tashxis qo‘yish qobiliyatları o‘quvchilarni o‘quv davrida tayyorlash jarayoni ustidan nazoratni muvaffaqiyatlari amalga oshirishda, musobaqalarga sportchilarni tanlash, dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqalar.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining axloqiy-estetik ko‘nikmalarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya fanida qo‘llaniladigan bir qator metodlarni chuqr o‘rganish talab qilinadi. Jismoniy tarbiyaning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

- 1) qat’iy tartibga solinadigan mashqlar;
- 2) o‘yin usuli (mashqlarni o‘yin shaklida qo‘llash);
- 3) raqobat usuli (mashqlarni musobaqa shaklida qo‘llash).

Bu metodlar yordamida jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini o‘rgatish va jismoniy sifatlarni

tarbiyalash bilan bog‘liq aniq vazifalar hal etiladi. Jismoniy tarbiyaning umumiy pedagogik usullarini quyidagicha:

Jismoniy tarbiya metodologiyasida usullarning hech biri eng yaxshi deb cheklanishi mumkin emas. Faqatgina ushbu usullarning uslubiy tamoyillarga muvofiq optimal kombinatsiyasi jismoniy tarbiya vazifalari kompleksini muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishning eng asosiy omillaridan biri bu sohada mutaxassis kadrlar salohiyati sanaladi. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimi qo‘ygan talablarni to‘liq bajarishga erishish muhum masalalardan biridir. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining axloqiy-estetik ko‘nikmalarini rivojlantirishda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, o‘rganish hamda jismoniy tarbiya usullarini, yo‘nalishlarini dars jarayonida samarali qo‘llash ham natijali ahamiyatga egadir. Olib borilayotgan keng qamrovli islohatlar nafaqat turli sohalarda kadrlarni tayyorlash masalasi, balki ta’lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya sohasidagi kadrlarning estetik axloqiy madaniyatini ijobjiy shakllantirish zaruriyati mavjud. Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining axloqiy-estetik kompetensiyalari bilan bog‘liq masalalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzuga oid qarashlar va manbalarning mavjudligiga qaramasdan, ushbu masalani sof pedagogik jihatdan tadqiq qilish lozimligini anglash kerak. Bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchisining axloqiy – estetik kompetensiyalarini shakllantirish davomida pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bugungi kunda bo‘lg‘usi jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining individualligida kreativlik, innovatsion, texnologik singari o‘ziga xos yondashuvlardan samarali foydalana olish kompetensiyasi mavjud bo‘lishi ham natija beradi. Har qanday o‘qituvchi dars mashg‘ulotlari jarayonida sof fikrli, mard, muomalali, qat’iyatli, ma’naviy va jismoniy yetuk shaxslarni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib olishi kerak. Bu esa o‘z navbatida, kelajakda mamlakatimiz taraqqiyotiga xizmat qiluvchi yetuk kadrlarning shakllanishiga asos bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. PF-6099. 2020-yil 30-oktabr.

3.Abdullahayev A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Darslik.

4.Abdullahayev A. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Xankeldiyev  
Tahriri ostida. Darslik. 2-to‘ldirilgan nashri. T.: “Navruz” nashryoti, 2019.

SH.X.

5.Уткин В.И., Ревенко Е.М., сальников в.а. // Физическая культура: воспитание, образование, Тренировка. -2010

6. To‘xtaboyev n.t. Jismoniy tarbiya mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirishga tashkiliy-pedagogik yondashuv. p.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2011.